

MAXSULOT SOTISH JARAYONI BO'YICHA BUDJET TUZISH TARTIBI

U.A.Shirinov – SamISI, dotsent

Annotatsiya: Maqolada segmentlar bo'yicha budgetlar tuzish tartibi, bosh budget, maxsulot sotish budgetlarini shakillantirish tartiblari yoritilgan.

Kalit so'zlar: budget, bosh budget, sotish budgeti, segmentar hisobot, boshqaruhi hisobi.

Аннотация: В статье описан порядок формирования бюджетов по сегментам, общего бюджета, а также порядок формирования бюджетов реализации продукции.

Ключевые слова: бюджет, общий бюджет, бюджет продаж, сегментный отчет, управленческий учет.

Abstract: The article describes the procedure for creating budgets for segments, the general budget, and the procedures for creating budgets for product sales.

Key words: budget, general budget, sales budget, segmental report, management account.

Mamlakatimizda olib borilaotgan izchil isloxoatlar korxonalarini to'g'ri boshqarishni, ular bo'yicha to'g'ri qarorlar qabul qilishni davr talabi qilib qo'ymoqda. Boshqaruv segmentar hisobtlarning xarakterli jihatlaridan biri shundaki, ularni shaklan va mazmunan standartlashtirib bo'lmaydi. Korxonalarda har bir segment bo'yicha tuzilayotgan boshqaruv hisobtlari formati, tarkibiy tuzilishi, tuzish tartiblari, taqdim etish muddati va boshqa jihatlari bo'yicha bir-biridan farqlanadi.

Shu bilan birga halqaro ta'limotda boshqaruv segmentar hisobot shakllarini tuzish negiziga ularni qaysi javobgarlik subyektlari hamda obyektlari bo'yicha tuzilishidan qat'iy nazar nazorat qilish tamoyiliga javob berish tamoyili asos qilib olinishi e'tirof etiladi. Ushbu tamoyilga muvofiq javobgarlik subyektlari va obyektlari bo'yicha tuziladigan segmentar hisobtlarda, aavalambor, tuzilgan reja (byudjet) ko'rsatkichlari hamda ular haqqoniy ijrosini ifodalovchi miqdor va nisbiy ko'rsatkichlar, shuningdek, ulardagi chetlanishlar aks ettirilishi, tuzilgan hisobtlarga beriladigan izoh va tushuntirishlarda esa yo'l qo'yilgan chetlanishlarning qanday omillar evaziga yuz bergenligi hamda chetlanishlarning aybdorlari o'z aksini topishi lozim bo'ladi. Aynan ushbu talabdan kelib chiqib, quyida korxonalar bosh byudjeti hamda ayrim alohida olingan ko'rsatkichlar bo'yicha tuziladigan byudjetlar ijrosi bo'yicha segmentar hisobtlarni tuzish tartibiga hamda ularga berilishi lozim bo'lgan tushuntirishlar va izohlarga qisqacha to'xtalamiz.

Korxonalarda budjet tuzish jaroyonlari haqida ko'pgina iqtisodchi olimlar o'z qarashlarini ilgari surishga jumladan, K.B.Urazov, A.X.Pardayev, U.A.Shirinov, S.S.Kenjayeva, I.Istroilov va boshqalar.

Bosh byudjet, oldingi boblarda ta'kidlanganidek, kompleks hujjat hisoblanadi. U o'z ichiga korxonaning barcha tarkibiy qismlari, bo'limlari, filiallari faoliyatiga doir asosiy reja ko'rsatkichlarni oladi. Bosh byudjet (biznes reja) ijrosi bo'yicha tuziladigan segmentar hisobotda uning har bir ko'rsatkichi bo'yicha hisobot oyi uchun belgilangan reja, u bo'yicha haqiqatda erishilgan natija, shuningdek, reja bajarilishi foizi, rejadan chetlanishlar miqdor va pul birligida aks ettirilishi lozim. Aynan shunday talabdan kelib chiqib, Bosh byudjet (biznes reja) ijrosi bo'yicha tuziladigan segmentar hisobotni quyidagi shaklda tuzish maqsadga muvofiqdir (1-jadval)

1-jadval

Bosh byudjet (biznes reja) ijrosi bo'yicha segmentar hisobot _____ yil _____ oyi uchun

№	Ko'rsat-kich	O'l-chov bir-ligi	Rej		Haqiqatda bajarilgan		Reja bajarilishi foizi		Rejadan chetlanish	
			Yil-lik	Oy-lik	Yil boshi dan	Shu oyda	Yil boshi dan	Shu oyda	Yil boshi dan	Shu oyda

Ushbu segmentar hisobotni tuzishga asos bo'lib har bir ko'rsatkich bo'yicha javobgarlik markazi tomonidan to'lg'azilgan hisobotlar hisoblanadi. Uning asosida korxona rahbariyati tegishli javobgarlik markazlari faoliyatiga baho beradi, ularga doir boshqaruv qarorlarini qabul qiladi hamda rag'batlantirish yoki jazo tadbirlarini belgilaydi.

Ushbu byudjetni foyda markaziga kiruvchi sotish bo'limi tuzadi. Mazkur hisobotni yillik, choraklik va oylik biznes-reja ko'rsatkichlari hamda haqiqatda erishilgan natijalarni ifodalovchi hisob registrlari asosida hisobot oyning har dekadasida quyidagi shaklda tuzish maqsadga muvofiqdir (2-jadval).

2-jadval

Sotish byudjeti ijrosi bo'yicha segmentar hisobot _____ yil _____ oyi uchun

Mahsulot nomi	Sotish hajmi rejasি		Haqiqatda sotish hajmi		Reja bajarilishi foizi		Rejadan chetlanish	
	Oy	Shu	Oy	Shu	Oy	Shu	Oy	Shu

	boshi-dan	dekada-da	boshi-dan	dekada-da	boshi-dan	dekada-da	boshi-dan	dekada-da
A mahsulot								
B mahsulot								
.....								
Jami								

Ushbu segmentar hisobotni tuzishga asos bo'lib sotish bo'limi tomonidan daromadlarni mahsulot turlari bo'yicha aks ettiruvchi analitik jadvallar hisoblanadi. Mos ravishda ushbu analitik jadvallar korxona buxgalteriyasida yuritiladigan tayyor mahsulotlar sotilishini aks ettiruvchi hisob registrlari, ombor mudirlari hisobotlari hamda ombor hisobi kartochkalari ma'lumotlari asosida tuziladi. Sotish byudjeti bo'yicha tuzilgan segmentar hisobot asosida korxona rahbariyati foyda markaziga kiruvchi sotish bo'limi faoliyatiga baho beradi, unga doir boshqaruv qarorlarini qabul qiladi hamda rag'batlantirish yoki jazo tadbirlarini belgilaydi.

Ushbu byudjetni ham foyda markaziga kiruvchi sotish bo'limi tuzadi. Mazkur hisobotning ahamiyati shundaki uning asosida tayyor mahsulotlarning mavjud qoldig'i keyingi hisobot davrlarida belilangan sotish rejasini bajarilishi uchun tegishli zahirani ta'minlanganligini oldindan nazorat qilish imkonini beradi. Ushbu hisbotni hisobot oyning har dekadasida quyidagi shaklda tuzish maqsadga muvofiqdir (3-jadval).

3-jadval

Sotish hajmini ta'minlovchi tayyor mahsulotlar qoldig'i byudjeti ijrosi bo'yicha segmentar hisobot _____ yil _____ oyi uchun

Mahsulot nomi	Sotish hajmi rejasি		Haqiqatda mavjud tayyor mahsulot qoldig'ii		Sotish reja bajarilishi ta'minoti foizi		Reja bajarilishi ta'minotidan chetlanish	
	Oy boshi dan	Shu dekada da	Oy boshi ga	Shu dekada boshiga	Oy boshi ga	Shu dekada boshiga	Oy boshi ga	Shu dekada boshiga
A mahsulot								
B mahsulot								
.....								
Jami								

Ushbu segmentar hisobotni tuzishga asos bo'lib korxona buxgalteriyasida yuritiladigan tayyor mahsulotlar hisob registrlari, ombor muditlari hisobotlari hamda ombor hisobi kartochkalari ma'lumotlari hisoblanadi. Sotish hajmini ta'minlovchi tayyor mahsulotlar qoldig'i byudjeti bo'yicha

tuzilgan segmentar hisobot asosida korxona rahbariyati xarajat markaziga kiruvchi ishlab chiqarish bo'limi hamda foyda markaziga kiruvchi sotish bo'limi faoliyatiga baho beradi, ularga doir boshqaruv qarorlarini qabul qiladi hamda rag'batlantirish yoki jazo tadbirlarini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.** Safarovna, Kenjayeva Sabohat. "Hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishda boshqaruv hisobida budgetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish tartibini takomillashtirishning o'rni." "*XXI asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta'lim taraqqiyotidagi dolzarb muammolar*" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 1.4 (2023): 185-188.
- 2.** Gulomjonovich, Isroilov Islomjon. "Bugungi kundagi budget tashkilotlari boshqaruv hisobida budgetlashtirishni takomillashtirish masalalari." *Ijodkor o'qituvchi* 2.22 (2022): 278-281.
- 3.** Urazov, K. B. (2004). Buxgalteriya hisobi va audit. *Toshkent-2004*.
- 4.** Urazov, K. B., & Shirinov, U. A. (2023). Need and significance of consolidated financial statements. *Экономика и социум*, (6-2 (109)), 577-579.
- 5.** Ширинов, У. А. (2022). Почта хизматларининг ҳисоб ва аудит обьекти сифатидаги таснифий асослари. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 804-809.
- 6.** Ширинов, У. А. (2022). Алоқа хизматларини кўрсатувчи субъектларда аудитнинг долзарб масалалари. *Архив научных исследований*, 2(1).
- 7.** Ширинов, У. А. (2022). Мобил алоқа хизматларидан олинадиган даромадлар ҳисобини такомиллаштириш. *экономика и социум*, (6-2 (97)), 800-803.